



**VI INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE  
"ABU ALI IBN SINO  
(AVICENNA) AND INNOVATIONS  
IN MODERN PHARMACEUTICALS"**

**May 18th, 2023  
Tashkent city, Republic of Uzbekistan**



THE MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE  
IBN SINO PUBLIC FOUNDATION

ABSTRACT BOOK OF THE 6<sup>TH</sup> INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON

**ABU ALI IBN SINO AND INNOVATIONS  
IN MODERN PHARMACEUTICS**

TASHKENT-2023

\*\*\*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT FARMATSEVIKA INSTITUTI  
IBN SINO JAMOAT FONDI

**ABU ALI IBN SINO VA ZAMONAVIY  
FARMATSEVIKADA INNOVATSIYALAR**

MAVZUSIDAGI  
VI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO'PLAMI

TOSHKENT-2023

\*\*\*

МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ  
ОБЩЕСТВЕННЫЙ ФОНД ИБН СИНО

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ VI МЕЖДУНАРОДНОЙ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ

**АБУ АЛИ ИБН СИНО И ИННОВАЦИИ  
В СОВРЕМЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ**

ТАШКЕНТ-2023

---

---

**∞ EDITORIAL BOARD ∞**

**Chairman:** Doctor of Medical Sciences Rizaev K.S.

**Members of the editorial board:**

Doctor of Chemical Sciences Normakhamatov N.S.,

Candidate of Pharmaceutical Sciences Mullazhonova M.T.

\*\*\*

**∞ TAHRIR HAYATI ∞**

**Rais:** tibbiyot fanlari doktori K.S. Rizayev

**A`zolari:**

N.S. Normaxamatov – kimyo fanlari doktori, katta ilmiy hodim

M.T. Mullajonova – farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent

\*\*\*

**∞ РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ ∞**

**Председатель:** доктор медицинских наук Ризаев К.С.

**Редколлегия:**

доктор химических наук Нормакхаматов Н.С.,

кандидат фармацевтических наук Муллажонова М.Т.

**MUNDARIJA**  
**(СОДЕРЖАНИЕ)**  
**(CONTENTS)**

|   |          |
|---|----------|
| <b>ABU ALI IBN SINO VA O`RTA ASRLAR SHARQI ALLOMALARI ILMIY MEROSINING FARMATSIYA SHAKLLANISHIGA QO`SHGAN XISSASI.....</b>              | <b>3</b> |
| <b>ВКЛАД АБУ АЛИ ИБН СИНО И УЧЕНЫХ СРЕДНЕВЕКОВОГО ВОСТОКА В РАЗВИТИЕ ФАРМАЦИИ .....</b>   | <b>3</b> |
| <b>THE CONTRIBUTION OF ABU ALI IBN SINO AND SCIENTISTS OF THE MIDDLE AGES TO THE DEVELOPMENT OF PHARMACY .....</b>                      | <b>3</b> |
| IBN SINA PHARMACOPŌEIA APPLY TO THE EU PHARMACOPŌEIA – THE EDUCATIONAL CHALLENGE .....  | 3        |
| Gur Gidon   |          |
| HERBAL MEDICINE-VALUABLE HERITAGE FROM AVICENNA .....   | 3        |
| Mollahaliloğlu Salih  |          |
| ЁШИ ВА БЎЛАЖАК ШИФОКОРЛАРИНИНГ ҲАР ТОМОНЛАМА ЕТУК МУТАХАССИС БЎЛИШИДА ИБН СИНОНИНГ ШАХСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСЛАРИ АҲАМИЯТИ..... | 4        |
| Ашуров А.А., Саъдинов П.О., Тухтаев Ф.Х.  |          |
| ABU ALI IBN SINONING «AL-QONUN» ASARINING FAMAKOLOGIYADAGI АҲАМИЯТИ.....  | 5        |
| Salomova F.I., Sherqo‘ziyeva G.F., Sharipova S.A., O‘rolova O.  |          |
| IBN SINA ON MEDICINES .....   | 6        |
| Sobirova S.J., Hakimova D.B.  |          |
| FARMATSEVTIKANING RIVOJLANISHIDA SHARQ ALLOMALARINING XISSASI.....  | 7        |
| Sherqo‘ziyeva G.F., Egamberdiyeva Z.Z., Bahriddinova M.N.   |          |
| MUTAFAKKIR OLIM ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA SHAXS VAUNING PSIXIKASINING O`RGANILISHI.....   | 8        |
| Sultonova L.B.  |          |
| РОЛЬ АБУ АЛИ ИБН СИНО В СОВРЕМЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ .....  | 9        |
| Эргашева М.Н., Жураева Н.Д., Рахимова Д.К., Олимов Н.К.   |          |
| РЕКОМЕНДАЦИИ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ ПО ПРИМЕНЕНИЮ НАСТОЙКИ РАСТЕНИЯ ШАФРАН....  | 9        |
| Авгонова М.Ю., Жалилова Д.М.  |          |
| ABU ALI IBN SINO VA O`RTA ASRLAR SHARQI ALLOMALARI ILMIY MEROSINING FARMATSIYA SHAKLLANISHIGA QO`SHGAN XISSASI .....                    | 10       |
| Rustamova H.X.  |          |
| ВКЛАД АБУ АЛИ ИБН СИНО В РАЗВИТИИ ФАРМАЦИИ .....  | 11       |
| Нарметова С.Я., Мардиева Ж.С.   |          |
| ВКЛАД АБУ АЛИ ИБН СИНЫ В ЛЕЧЕНИЕ РАКА .....   | 12       |
| Нарметова С.Я., Хакимова А.И.   |          |
| IBN SINO TA`BIRLARI HOZIRGI ZAMON DORI TURLARI TECHNOLOGIYASI TALQINIDA .....   | 13       |
| Turdieva Z.V., Yunusova X.M.  |          |
| ЭМУЛЬСИОННЫЕ ЛЕКАРСТВЕННЫЕ ФОРМЫ ИЗ МАСЛЯНЫХ ЭКСТРАКТОВ И ИХ СВОЙСТВА В СВЕТЕ УЧЕНИЙ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ.....                              | 13       |
| Тухтаев Х.Р., Хамидов О.Ж., Абдуллаева Х.К.   |          |
| ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA FANI RIVOJIGA QO`SHGAN HISSASI....   | 14       |
| Normo‘minov H.Sh., Maxkamov B.G‘.   |          |
| «TIB QONUNLARI» DA FARMATSEVTIKA MASALALARI .....   | 15       |
| Atamuratova F.S.  |          |

However, the second book of the "Canon" is also of particular interest to pharmacists - it lists simple medicines of plant, animal and mineral origin with their effects, methods of use, instructions for collection and storage. Describing "simple healing remedies", the Persian scientist carefully studies their effect on the body and gives "rules for external use".

Ibn Sina, according to him, is engaged in "learning the nature" of simple medicines by testing and comparing, and also "learns their power", that is, the main effect on the human body. The scientist tries to identify the greatest effectiveness of a particular remedy by testing them under various conditions - "after cooking, burning with fire, washing, cooling", etc.

This part of the "Canon" consists of 811 articles, of which 520 describe herbs, 31-intermediates derived from plants, and 215 - products of animal and mineral origin and their derivatives.

In general, Ibn Sina provided the medical system of its time not only with an independent pharmacopoeia, but also with all the necessary educational and methodological manuals. So, in addition to the "Canon", the Persian scholar presented in writing the most relevant problems of medicine at that time in more than 50 independent books and treatises written in prose and verse in Arabic and Farsi.

Currently, the use of the heritage of the great scientist and healer Abu Ali ibn Sino is important for the development of the fields of science and the promotion of human health.

## FARMATSEVTIKANING RIVOJLANISHIDA SHARQ ALLOMALARINING XISSASI

**Sherqo'ziyeva G.F., Egamberdiyeva Z.Z., Bahriddinova M.N.**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

Bizning vatandoshlarimiz Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniylar Sharqdagi ilm-fan va ma'rifatning yetuk mutaxassislari hisoblanadi. Abu Ali ibn Sinoni yoshligida tibbiyot ilmini juda tez o'rgananligi sababli «Yosh mo'jizakor tabib» deb atashgan bo'lsa Abu Rayhon Beruniyni «Qomusiy olim» deb nomi bilan mashhur bo'lgan. O'rta asrlarda O'rta Osiyo davlatlarida fan va madaniyat yuksak darajaga ko'tarildi buning natijasida yirik shaharlarda ilm-fan markazlari, dorilfununlar, madrasalar barpo etildi. Ko'plab olimlar, faylasuflar, adabiyot va san'at namoyandalari yetishib chiqdilar. Bulardan Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino 980- (370 hijriy) yilda Buxoro yaqinidagi Afshona nomli qishloqda tavallud topgan. Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», G'arbda «Avitsenna» nomi bilan mashhur. Mutafakkimning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan, biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o'ndan ortig'i astronomiyaga oid asarlaridir. Ibn Sino 17 yoshdayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanildi. Tibbiyotga oid «Al adviyat al-qalbiya» («Yurak dorilari») nomli kitobini yaratgan. Abul Ubayd Jurjoniyning yozishicha «Tib qonunlari» dastlab 14 jildidan iborat bo'lgan. Keyin u 5 jildga keltirilgan. Hozir bu kitob o'zbek va rus tillarida 6 jildlik qilib chop ettirilan. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Kitob ush-shifo", "Kitobi al kalbiya" kabi asarlarida o'sha davr tibbiyotida qo'llanilgan dori turlari tavsiflangan. "Tib qonunlari" ning birinchi kitobida ulug' hakim 900 ga yaqin oddiy dori moddalarini keltirgan, ulardan 612 tasi o'simliklarga mansub. Beshinchi kitobda murakkab dori turlarini tayyorlash va ularni qo'llash usullari bayon etilgan. Ibn Sino dorilarni bemorlarning mijoziga qarab ishlatish zarurligini uqtirgan, dorilarni mijoz bo'yicha isituvchi, sovituvchi, qurituvchi, namlovchi turlarga bo'lgan. Ibn Sino dori moddalariga bag'ishlangan she'riy "Urjuza fit-tibb" asarida dorilarni zarur bo'lgan taqdiridagina qo'llash kerakligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973- yil 4 sentabrda qadimgi Kot shahrida tavallud topgan. Sharqning boy fan va madaniyatini puxta o'rganib, yunon ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik olim bo'lib yetishdi. Beruniyning matematikaga va fanning boshqa sohalariga qo'shgan hissasini yozib qoldirgan 100 dan ortiq asaridan ham ko'rish mumkin. Beruniyning oxirgi asari «Dorivor o'simliklar haqida kitob»ining qo'lyozmasi XX asrning 30 yillarida Turkiyada topildi. Asar «Saydana» nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi. Jumladan «Saydana» asarida 1116 tur dorivorni tavsiflaydi. Shundan 750 turi o'simliklardan, 101 turi hayvonlardan, qolgan 255 turi minerallardandir. "Saydana" asarining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, unda Abu Rayhon Beruniy dorishunoslik alohida fan bo'lishligini ta'kidlab, shu bilan farmakologiya fanini asoslaydi. Abu Rayhon Beruniyning "Saydana" asarida XI asrda ma'lum bo'lgan dori turlari, to'rt yarim mingdan ortiq o'simliklar, hayvonlar, minerallar va ulardan

---

olinadigan ozuqalarning nomlari va izohlari keltirilgan. Beruniy insonning ichiga tushadigan har bir narsa yo oziq-ovqat yoki zahar bo'ladi, dorilar ana shularning o'rtasida turadi deb uqtirgan. Dastavval oddiy dorilar tavsiya qilinishi zarur, agar ular foyda yetkazmasa, shundan so'ng murakkab dorilarni qo'llash mumkin, deya ta'kidlagan. Har ikkala olim o'zoro muloqatda bo'lishganligi ya'ni Abu Rayhon Beruniyning "Ibn Sino bilan yozishmalar" asri bunga misol bo'la oladi.

## MUTAFFAKKIR OLIM ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA SHAXS VA UNING PSIXIKASINING O'RGANILISHI

Sultonova L.B.

*Toshkent farmatsevtika instituti,  
e-mail: lola.sultonova1504@gmail.com tel. +998946831504*

Dolzarliligi: Ibn Sino ta'limoti o'tmishda inson uchun bebaho ne'mat bo'lgan salomatlikni asrashda qanday qadrli bo'lsa, bugungi kundagi ahamiyati ham shu qadar yuksak. Hatto fan va texnologiyalar yuqori darajada taraqqiy etgan, yangi dori-darmon, diagnostika hamda davolash texnologiyalari amaliyotga kirib kelayotgan hozirgi zamonda ham allomaning tabobat an'analriga oid davolash usullariga ehtiyoj kuchayib bormoqda. Zero, qadimiy tabobat usullari og'ir asorat qoldirmaydigan shifobaxsh giyohlar, davolovchi harakatli muolajalarga asoslangani sababli salomatlik omili bo'lib kelgan. Ibn Sino ta'limotini o'rganar ekanmiz, bu borada alloma juda yuqori mahorat egasi bo'lganiga qoyil qolamiz. Uning o'gitlarida ham avvalo bemorning ruhiy holatini o'rganish, keyin muolajani boshlash xastalikni engishda samarali usul ekani qayd etilgan.

Maqsadi: Ibn Sino ruhshunoslik sohasida samarali ijod qilar ekan u bemorlar bilan ishlashda, kasalliklarni davolashda bemorning ruhiy holatiga katta etibor qaratish kerakligini aytib o'tadi. Ruhiy dalda berish, bemorni ruhan qo'llab quvatlash ko'p hollarda dori darmondan ko'ra yaxshiroq samara berishini ta'kidlaydi. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi yaqin va o'rta sharqning o'sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba'zilari fors tilida yozilgan.

Usul va uslublar: Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehri o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezdan egallay boshladi. 10 yoshidayoq qu'oni karimni boshdan-oyoq yod o'qir edi. 13 yoshlaridan boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug'ullana boshlaydi. Ibn Sino yosh bo'lishiga qaramay, Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida falsafani, Hasan ibn Nuh al-qunriydan tibbiyot ilmini har tomonlama o'rganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shug'ullanadi.

Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlariga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'olonini to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmogi lozim.

Natija: Ibn Sino, shuningdek, temperament va inson xarakteri haqida o'z ta'limotini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, inson mijozni to'rtga bo'linadi: issiq, sovuq, nam va quruq (zamonaviy psixologiyadagi to'rt mijozga mos ravishda). Mazkur mijozlar turg'un emas, balki meteorologik va havo o'zgarishi kabi tashqi yoki ichki omillar natijasida o'zgaradi. Organizmdagi suyuqlik darajasi ham inson mijoziga o'zgarishlar kiritishi mumkin.

Xulosa: Ibn Sino merosi bitmas-tuganmas xazinadir. Unga murojaat etgan sari olamni va odamni yanada chuqurroq idrok etamiz. Insonga ato etilgan bemisl aql-shijoat, kuch-qudrat, yaratuvchilik salohiyatining yangi-yangi qirralari namoyon bo'laveradi. Bunday kashfiyotlar insoniyatni komillik sari etaklaydi, hayot davomiyligi va kelajak avlodlar kamolotiga xizmat qiladi.